YAQIN SHARQDAGI PROKSI URUSHLAR FENOMENI: DAVLATDAN TASHQARI SUB'EKTLARNING MINTAQAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.

Suyunova Fotima Abdulaxat qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islom"iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar"ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

+(998) 88. 878.09.20.

suyunovamaftuna55@gmail.com.

Ilmiy rahbar: *Qo'ysinova Fazilat Oripovna,O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar"dotsenti,Siyosiy fanlar doktori,(PhD).*

Annotatsiya: Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi chuqur transformatsion davrni boshdan kechirmoqda. Ushbu tizimli o'zgarishlarning eng markaziy va mojaroli nuqtasi an'anaviylik va zamonaviylik ziddiyatlari qurshovida qolgan Yaqin Sharq mintaqasidir. XXI asrning birinchi choragida Yaqin Sharqdagi xavfsizlik arxitekturasi davlatlararo klassik urushlar formatidan uzoqlashib, asimmetrik va gibrid xarakterga ega bo'lgan "proksi urushlar" botqog'iga g'arq bo'lmoqda.Xo'sh, Yaqin Sharqdagi proksi urushlar fenomeni mojorolarga aralashuvning yangi usulimi, ushbu maqola shu haqida.

Kalit so'zlar: Yaqin Sharq, mojoro, proksi urush,zamonaviy,xavfsizlik**,** assimetrik

Abstract: Today, the international relations system is undergoing a deep transformational period. The most central and controversial point of these systemic changes is the Middle East region, which remains surrounded by contradictions between traditionalism and modernity. In the first quarter of the 21st century, the security architecture of the Middle East has moved away from the format of classical interstate wars and is increasingly sinking into the swamp of asymmetric and hybrid

“proxy wars.” So, is the phenomenon of proxy wars in the Middle East a new method of intervention in conflicts? This article explores that issue.

Keywords: Middle East, conflict, proxy war, modern, security. asymmetric.

Аннотация: На сегодняшний день система международных отношений переживает глубокий трансформационный период. Наиболее центральной и противоречивой точкой этих системных изменений является регион Ближнего Востока, оказавшийся в окружении противоречий между традиционностью и современностью. В первой четверти XXI века архитектура безопасности на Ближнем Востоке постепенно отходит от формата классических межгосударственных войн и всё глубже погружается в болото асимметричных и гибридных «прокси-войн». Так является ли феномен прокси-войн на Ближнем Востоке новым методом вмешательства в конфликты? Именно этому вопросу посвящена данная статья.

Ключевые слова: Ближний Восток, конфликт, опосредованная война, современность, безопасность, асимметричная война.

Xalqaro huquqning asosiy subyektlari, boshqacha aytganda, davlatlar o‘zaro munosabatlarga kirishganda har doim xalqaro normalarga muvofiq harakat qilishlari va xalqaro organlar tomonidan belgilangan qoidalarni buzmasliklari shartligi ta’kidlanadi. Biroq, global maydonda nisbatan ko‘proq kuchga ega bo‘lgan yirik davlatlar ba'zan o‘zlarining strategik manfaatlarini ustuvorligini saqlash uchun uchun ushbu qoidalarni buzish holatlari uchrab turadi.Vestfaliya suverenitet tizimining inqirozi natijasida mintaqada ayniqsa,Yaqin Sharqda markaziy davlat hokimiyatlarining zaiflashishi (masalan, Yaman, Suriya va Livanda) geosiyosiy bo‘shliqlarni yuzaga keltirdi. Ushbu bo‘shliqlarni to‘ldirish va mintaqaviy gegemonlikka erishish maqsadida global va trans-mintaqaviy kuchlar bevosita to‘qnashuvlardan qochib, uchinchi tomon - davlatdan tashqari sub’ektlar (non-state actors) orqali harakat qilish strategiyasini tanladilar.

Proksi urush - bu ikki yoki undan ortiq tashqi kuchlarning bevosita harbiy to‘qnashuvga kirmasdan, muayyan hududdagi mahalliy sub’ektlarni moddiy, moliyaviy va strategik jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali o‘z siyosiy maqsadlariga

erishish kurashidir. Bilamizki, bunday holatlar Yaqin Sharq mintaqasida avj olgan.Misol uchun, mustamlakachilar tomonidan yaratililgan sun'iy guruhlar Bularni ba'zi bir davlatlar misolida tahlil qilamiz.Eron o'nlab yillar davomida Iroqdagi shi'a qurolli guruhlarini moliyalashtirib, tayyorlab kelgan. Bu kuchlar Tehronning mintaqadagi ta'sir doirasi - "Qarshilik o'qi"ning muhim qismi hisoblanar edi.Qo'shimcha tarzda,Livan bu davlatni yagona mamlakat sifatida faqat xaritada ko'rish mumkin.U yerda markazga olib boradigan yo'l shialar yashaydigan yerlardan o'tadi.Bu hududlar qisman "Hizbulloh"(Eron tomonidan qo'llab-quvvatlanadi) nazoratida bo'lib ular mamlakatdagi eng katta harbiy qudratga ega guruh hisoblanadi.Qayd etish joizki,Livan armiyasi faqat qog'ozda mavjud bo'lib agar 1975-1990-yillardagi fuqorolar urushi qayta takrorlansa ,katta ehtimol bilan mamalakat zavolga yuz tutadi.[1]Tarixdan ma'lum,norozilik harakatlari boshlangan taqdirda ko'pchilkik harbiylar o'z shaharlariga qaytib,mahalliy namoyishchilarga qo'shilib ketdi. Bundan tashqari, Suriyada 2011-yilda fuqarolar urushi boshlanganda, Hizbulloh Eron buyrug'i bilan Bashar Asad rejimini saqlab qolish uchun urushga kirdi. Bu esa uning nafaqat Livanda, balki trans-mintaqaviy miqyosda harakat qila oladigan proksi kuchga aylanganini ko'rsatdi.

Shu tariqa Rossiyaning Suriyaga kirib kelishi,Eron Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi qo'shinlari va minglab Hizbulloh jangarilarining yordami bilan Asad rejimi saqlab qolindi va qo'ldan boy berilgan hududlarni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldi. Yaman Houthilari (Ansor Alloh harakati) ham Eron proksi tizimining muhim elementi hisoblanadi. Zaydiy shia muslimoni bo'lgan houthilar dastlab mustaqil harakat sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, 2000-yillarning o'rtalaridan boshlab Eron bilan hamkorlik kuchaydi. Bugun Houthilar Eron raketalar va dronlari bilan qurollantirilgan holda Yaman hududining muhim qismini nazorat qiladi va Qizil dengiz orqali o'tuvchi xalqaro savdo kemalariga hujumlar uyushtirmoqda. Eron mintaqadagi guruhlarni moliyalashtrishni 1979-yil fevralida Muhamad Rizo Pahlaviy rejimining qulashi bilan boshladi. Eron nafaqat ichki, balki tashqi siyosiy yo'nalishini ham tubdan o'zgartirdi. "Inqilobiy Eron" o'zini butun dunyo mazlumlarining himoyachisi sifatida e'lon qildi va bu rasmiy mafkura tashqi faoliyatda proksi mexanizmlarni qo'llashga yo'l ochdi. Shundan so'ng Yaqin sharqdagi vaziyat yanada keskinlashdi.

General Qosim Sulaymoniy rahbarligida (1998–2020) al-Quds kuchlari mintaqaviy proksi tarmog'ini sezilarli darajada kengaytirdi. Uning 2020-yil 3-yanvarda AQSh tomonidan o'ldirilishi proksi

strategiyaning yangi bosqichga oʻtishiga olib keldi, biroq tarmoq faoliyatini davom ettirdi. ettirdi.**Al-Quds** kuchlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, proksi guruhlarni harbiy jihatdan tayyorlash va qurollantirish; ikkinchidan, iqtisodiy va moliyaviy yordam koʻrsatish; uchinchidan, razvedka va maxsus operatsiyalarni amalga oshirish; toʻrtinchidan, siyosiy ta'sir oʻtkazish va diplomatik aloqalar oʻrnatish. Yaqin Sharqdagi davlatdan tashqari subʼektlarning yana bir strategik turi- Falastindagi HAMAS harakatidir. Agar 'Hizbulloh' Livan davlati ichidagi gibrid kuch boʻlsa, HAMAS Gʻazo sektorida muayyan hududni toʻliq maʼmuriy nazorat qiluvchi subʼektga aylandi.Uning Eron tomonidan harbiy-texnik jihatdan qoʻllab-quvvatlanishi uni yanada katta kuchga aylantirib yubordi.7-oktyabr ertalab HAMAS Isroilga minglab raketalar uchirdi.[2]Livandagi Hizbulloh kuchlari ham oʻzlarining ulkan raketalarini Isroilga qarshi ishga solidi va ikkinchi front ochiladi,natijada Isroil vahimaga tushib,zaif holatda muzokaralar kursisiga oʻtirishga majbur boʻladi deb xato oʻylagan edi.Natijada Isroil ham barcha qurollarini ishga solib Gʻazoni vayron qildi.Urush oqibatida,mingdan ortiq bolalar,ayollar va tinch aholi vafot etdi.

Keyingi oʻn yillikga yaqinlashganimizda ham Yaqin Sharq manzarasi shunday koʻrinmoqda.Tashqi kuchlar hanuzgacha mintaqaning ichki ishlariga aralashmoqda.

Shu sababdan Yaqin Sharqda liberal demokratiya yaqin kelajakda yuz berishi kutilmayapti.Mintaqaning koʻplab mamlakatlarida hokimiyatni qoʻlga kiritish yoki saqlab qolish uchun siyosiy zoʻravonlik hamon oddiy holga aylanib qolgan.Lekin bunday masalalarni nisbatan kamaytirish uchun mintaqa davlatlari muzokara stoliga oʻtirmoqdalar.Misol tariqasida,Ibrohim kelishuvlarini olaylik.Ushbu kelishuv sabab Isroil bilan BAA, Bahrayn, Marokash, Sudan oʻrtasidagi munosabatlar moʻtadillashdi.

Tehronning strategiyasi boshqa davlatlardan farqli oʻlaroq, asimmetrik ustunlikka asoslangan. Eron Islom Inqilobi Muhofizlari Korpusining (IRGC) "Quds" maxsus boʻlinmasi oʻn yillar davomida mintaqadagi shia va ba'zi sunniy guruhlarni yagona proksi tarmoqqa birlashtira oldi. Bu esa Eronga minimal iqtisodiy xarajat evaziga Oʻrta Yer dengizidan Qizil dengizgacha boʻlgan ulkan geografiyada strategik nazorat oʻrnatish imkonini berdi.

Yaman inqirozi va Husiychalar ("Ansar Alloh") fenomeni

Yaman mojarosi klassik proksi urushning eng yaqqol namunasidir. 2015-yildan boshlangan Saudiya Arabistoni boshchiligidagi koalitsiyaning harbiy amaliyotlari

Husiychalar harakatini yo‘q qila olmadi. Aksincha, 2024–2026-yillarga kelib, Husiychalar mahalliy guruhdan global energetik transport tizimiga tahdid sola oladigan sub’ektga aylandi. Bab al-Mandeb bo‘g‘ozi va Qizil dengizdagi xalqaro kemalarga qilingan dron va raketa hujumlari davlatdan tashqari sub’ektlarning global iqtisodiyotga asimmetrik ta’sir ko‘rsatish kuchini namoyish etdi.

Xulosa:Yaqin Sharqdagi proksi urushlar fenomeni mintaqada uzoq muddatli tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo‘lidagi eng katta to‘siqdir. Davlatdan tashqari sub’ektlar bugungi kunda shunchaki qurolli guruhlar emas, balki xalqaro huquqning rasmiy tan olinmagan, ammo real kuchga ega bo‘lgan "gibrid aktyorlari"ga aylanib ulgurdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tim Marshall-Geografiya mahkumlari kitobidan.2026-yil.Toshkent.289-b
2. https://iais.uz/uz/outputnew/proxy-wars-introduction-to-the-new-way-of-intervention.
3. ERON PROKSI STRATEGIYASINING SHAKLLANISHI. 2026-yil. Abdullamitov Abdurahim maqolasi.
4. Abdullayev R.T. Yaqin Sharq mintaqasida xavfsizlik muammolari va geosiyosiy raqobat. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2021. 284 b.

[1] Tim Marshall-Geografiya mahkumlari kitobidan.

[2] Tim Marshall-Geografiya mahkumlari kitobidan